XALQ DEPUTATLARI KO‘KDALA TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 24 - noyabr VI-13-72-4-224-K/23 Ko‘kdala tuman hokimligi

Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman hokimligining Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Ko‘kdala tumani Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1.Tuman hokimligining Ko‘kdala tumani mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va kreditor qarzdorliklarni qoplashga hamda oziq-ovqat zahirasi jamgarmasiga yo‘naltiriladigan mablag‘lar bo‘yicha takliflar **ilovaga** muvofiq ma’qullansin.

2.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (B.Do‘stov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Muxammadiyev) bilan birgalikda:

- bir hafta muddatda mazkur qarorning **ilovasiga** muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirilishini ta’minlasin;

- “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlar kiritsin;

- ajratilgan maqsadli mablag‘larni o‘z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o‘rganish hamda o‘rganish natijalariga ko‘ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko‘rsin.

3.Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi (X.Ro‘ziev) ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4.Mazkur qaror ijrosining nazorati xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi F.Bektemirov hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Do‘stovlar zimmasiga yuklatilsin.

5.Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **X.Djurayev**

Xalq deputatlari Ko‘kdala tuman
Kengashining
2023-yil 24-noyabrdagi
VI-13-72-4-224-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ko‘kdala tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar.

(mln.so‘m)

T/r	Mablag‘ oluvchi tashkilot nomi	Tadbirlar nomi	Ajratiladigan mablag‘ miqdori
1.	Tuman hokimligi	Aholini asosiy turdagi oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta’minlash zaxira jamg‘armasiga	100.0
2.	Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi	“Yashil makon” davlat dasturi doirasida manzarali va mevali daraxt kuchatlari sotib olish xarajatlariga	100.0
	Jami		**200.0**

Ajratiladigan mablag‘lar miqdoriga yakuniy hisob-kitoblar asosida o‘zgartirish kiritilishi mumkin.